

G‘AFUR G‘ULOMNING “SHUM BOLA” ASARINING TAHLILIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

G‘ulomjonov Hakimbek Shavkatjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi

“M.Najimov” ilmiy maktabi a’zosi

Telefon: + 998 (90) 840 22 03

E-mail: hakimbekgulomjonov@gmail.com

Annotation: Ushbu maqolada adib G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asaridagi voqealar tahlil qilingan va asar qahramonlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yozuvchi, aholi qatlamlari, Sho‘ro tuzumi, qashshoqlik, tengsizlik, dehqon, yangi avlod, o‘smirlilik, tanazzul.

Har kim bu dunyoga kelar ekan, o‘zidan yaxshi nom qoldirib ketishga harakat qiladi, bu maqsadga erishish uchun inson qo‘lidan kelganicha harakat qiladi. O‘zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri G‘afur G‘ulom ham o‘lmas asarlari bilan ulkan meros qoldirib ketgan. Adib 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrining Qo‘rg‘ontegi mahallasida tavallud topdi. To‘qqiz yoshida otasidan, o‘n besh yoshida onasidan yetim qolgan G‘afur avval eski maktabda, so‘ngra rus-tuzem maktabida ta’lim oldi. “U “Oktyabr” to‘ntarishidan keyingi yillarda muallimlar tayyorlov kursini bitirib, yangi usuldagagi maktablarda o‘qituvchilik qildi. 1923-yildan bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so‘ng “Kambag‘al dehqon”, “Qizil O‘zbekiston”, “Sharq haqiqati” gazetalari muharririyatlarida ishladi. Gazeta uning uchun dorilfunun rolini o‘tadi, xalq hayotini o‘rganish, unga faol aralashish yo‘lida muhim vosita bo‘ldi”¹.

U o‘zbek va tojik mumtoz adabiyotini o‘qigan, rus tilini bilgan, o‘zi ham she’rlar yozgan. G‘afur G‘ulom asarlari boshqa yozuvchilarining asarlaridan o‘zining rang-barangligi va mavzularning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Adib o‘z davridagi adabiyot namoyandalari bilan ham yaxshi aloqada bo‘lgan. Uning uyiga Muqimiyy, Furqat, Asiriyl, Xislat va boshqa shoirlar kelib turgan. 45 yillik ijodi davomida G‘afur G‘ulom ko‘pdan ko‘p she’r, doston, ocherk, feleton, hajviya, hikoya, qissa, maqola, tarjima asarlarni e’lon qilgan. Ularda shoir yaxshilik, ezgulik, birodarlik, do’stlikni ulug‘lagan. Yosh avlodni kelajakka katta umidlar bilan qarashga undagan. Bular uning asarlariga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardir.

“G‘afur G‘ulom Sharq mumtoz adabiyotining, zamонави о‘zbek she’riyatining katta bilimdoni edi. 1943-yilda O‘zbekiston fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi etib

¹<https://tafakkur.net/gafur-gulom>

saylandi. Adib 1966-yilning 10-iyunida vafot etadi. G‘afur G‘ulomga o‘zbek adabiyoti, fani va madaniyati rivojiga qo‘sishgan ulkan hissasi uchun “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni berildi. 1999-yilda Prezident farmoni bilan “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. 2003-yilning may oyida G‘afur G‘ulom tavalludining 100 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi. Toshkent shahrining eng katta istirohat bog‘laridan biriga shoir nomi berildi va uning haykali o’rnatildi. Metro bekatlaridan biri ham G‘afur G‘ulom nomi bilan ataldi”².

G‘afur G‘ulom she’rlar bilan birga o‘nlab hikoyalar, “Netay”, ”Yodgor”, “Tirilgan murda” singari qissalar ham yozdi. Ikkinchi jahon urushi paytida esa adibni dunyoga tanitgan “Kuzatish”, “Sen yetim emassan”, “Vaqt”, “Sog‘inish”, ”Onalar” singari mumtoz she’riy asarlari yaratildi.

Adibni mashhurlik cho‘qqisiga olib chiqqan “Shum bola” asaridir. Yozuvchi yoshlik davrlarida og‘ir hayot tarzini boshidan o‘tkazadi. Ota-onasidan erta ajragan G‘afur G‘ulom ro‘zg‘or tashvishlarini boshidan o‘tkazadi. Biz ta’riflamoqchi bo‘lgan “Shum bola” asari aynan adibning og‘ir hayotining yaqqol dalili yoki aksi sifatida yaratilgan hisoblanadi. "Shum bola" asari uning avvalgi asarlariga nisbatan boshqacha bo‘lib, uning yaratilishi va asarining tuzilishida turli xil o‘zgarishlar mavjud. Asarda o‘sha davr insonlarining hayoti yaqqol ko‘rinib turadi. Shum bolaning onasi yolg‘iz o‘zi bolalarini kata qilishi, bir burda non topish qanchalik qiyin ekanligini boshdan kechirishi, o‘sha davr ayollarining huquqlari poymol etilishi orqali o‘sha davrda umuman ona va bola huquqlarining ishlamaganiga guvoh bo‘lamiz. Bozorlarda jinnilarning ko‘pligi, asar bosh qahramoni Qoravoyning ta’rificha aytilgan, “Otalarimizga ish topilmaganda bizga ish qayoqda deysiz” kabi iboralari erkak kishilar o‘z oilasini katta qiyinchilik bilan boqayotgani, bolalarga-ku umuman ish topilmasligini yaqqol dalili hisoblanadi. Ko‘chada tilanchilarning juda ham ko‘pligi shusiz ham mustamlaka ostida yashayotgan xalqning yanada qashshoqlashayotgani, turli hududlarda ocharchiliklar davom etayotgani, o‘g‘irlik va fisqu-fasodning avj olishi asarda yorqin bo‘yoqlar bilan ifoda etilgan.

Bilamizki, adib “Shum bola” hikoyasini o‘zi o‘sgan muhit bilan tanishtirishdan (shu o‘rinda bir shartni qabul qilaylik: bu, aslida, o‘smirlik paytidagi hayotning adib xotirasida tiklangan eng muhim nuqtalaridir) boshlaydi. Shum bolaning aytishicha, uning singari “bozorda sanqib yurgan daydi bolalar uchun quvonchli ermaklardan biri bozor, mahalla, ko‘cha-ko‘y jinnilari edi. O‘sha yillari Toshkentda shunaqa ham jinni ko‘p ediki, sanab sanog‘iga yetolmaysiz”³. Jinnilarning fe’l-atvorigagi kulgili holatlarni hikoya qilarkan, Shum bola ularning fojeali taqdiriga oid tafsilotlarga ham to‘xtaladi. Xususan, shulardan biri — Karim jinni “ilgari bo‘zchi o‘tgan ekan, chit ko‘payib ketgandan keyin bo‘z o‘tmay qolib, bozori kasodga uchrab, bola-chaqasini

² <https://arbolar.uz/uz/people/gafur-gulyam>

³ <https://fayllar.org/shum-bola-asari-tahlili>

boqolmay, jinni bo‘lib qolibdi”. Yoki, shunga o‘xshash, el ichida “Mayramxon” deya erkalangan Mamatravim “eskidan chilangar ekan. Temir-tersak asboblar zavoddan chiqa boshlagandan keyin Mayramxon sinib, jinni bo‘lib qolgan ekan”. Nazarimizda, shu o‘rinda o‘quvchi qissa voqeligiga ikkita nigoh orqali qarash imkoniga ega bo‘ladi: kulgili tafsilotlar o‘spirin hikoyachiga, sho‘rliklarning fojeali taqdiri haqidagi ma`lumotlar adibga tegishlidek taassurot uyg`otadi. Boshqacha qilib aytganda, Shum bola nigohi bilan o‘smirlilik davrini kuzatar ekan, adib unga tahliliy nazar tashlaydi, fojealar ildizini ochib berishga intiladi.

“Darhaqiqat, Turkiston Chor Rossiyasining bozoriga aylangach, mahalliy hunarmand-kosiblarning mahsulotlari zavod-fabrika mahsulotlari bilan raqobat qilolmay qoldi. Tabiiyki, mustamlaka sharoitida mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlari mavjud emas, bu esa mazkur iqtisodiy-ijtimoiy tanglikni yanada kuchaytiradi. Natijada asrlar davomida shakllangan turmush maromi izdan chiqdiki, bu narsa davr kishilari ruhiyatida chuqur va og‘riqli iz qoldirishi muqarrar edi. G‘afur G‘ulom talqinida Karim jinni, Mayramxonlar shu xil ijtimoiy holatning alayno-oshkor qurbanlari sifatida bo‘y ko‘rsatadi”⁴.

Ma’lumki, qissada tasvirlangan davr Turkistonda kapitalistik iqtisodiy munosabatlar qaror topa boshlagan paytga to‘g‘ri keladi. Bunaqa sharoitda esa, tarixdan yaxshi ma’lum, jamiyatda tabaqalanish kuchayadi: evini qilonganlar o‘ta boyib, eplana olmaganlar qashshoqlashib boradi. “Yangicha sharoitga tez moslashganlar “yangi boylar” qatlamini tashkil qiladiki, ularda zeb-hashamga, dabdabaga o‘chlik ko‘riladi. Xalqimiz bu xil fe’l-atvorni oddiygina qilib “pul quturtigan”, “ko‘rmaganning ko‘rgani qursin” tarzida izohlasa-da, bu oddiy iboralar o‘zida hodisaning ijtimoiy-psixologik asoslarini mujassam etadi. Gap shundaki, “yangi boylar” qo‘lga kirgan katta davlatni xudoning bergani deb emas, avvalo, o‘zlarining oqilligi abjirligi mahsuli deb biladi. Bu esa ularda o‘zlarining o‘zgalardan ustunligi tuyg‘usini paydo qiladiki, ular beixtiyor buni barchaga tan oldirish, namoyish etish payidan bo‘ladilar. Tabiiyki, shu tuyg‘u iskanjasiga tushgan, boz ustiga davlati tufayli qo‘li har yerga yetib turgan odam jamiyatda mavjud an‘analar, ma’naviy-axloqiy me’yorlar bilan har vaqt ham hisoblashib o‘tirmaydi. Xususan, gavjum bozor o‘rtasidagi choyxonada o‘tirgan “ba’zi boyvachchalarning dasturxonida qorniga qaldirg‘och surati solingan, ustiga poxoldan to‘r to‘qilgan konyaklar” ko‘rinishi buning yorqin dalilidir. Ravshanki, ichkilik harom hisoblangan yurtda boyvachchalarning bu tarz namoyishkorona o‘tirishlari muddao ichishning o‘zagina emasligini ko‘rsatadi. Yoki ayni shu boyvachchalar kim o‘zarga bahslashib, Oysha satang singarilarga pishak beradilarki, ular: “Peshonamu ikki betim, engagimga yopishtirilavergan o‘n so‘mlik tillolarga to‘lib ketadi”, deya g‘ururlanib, maqtanib

⁴ <https://wordlyknowledge.uz/>

yuradilar”⁵. Ma’naviy tanazzul shunchalarki, bir paytlar gunohu or hisoblangan ishlar endi namoyishga, g’urur manbaiga aylangan. Eh-he, boyvachchalar hashamu dabdaba, ichkilik, qimor, fahshgasovurgan pullar qancha?! Ularning atrofida yurgan na yeyarichari, na kiyarida maza yo‘q yurtdoshlari, dindoshlari qancha?!. . .

Darvoqe, xalq “qorni to‘qning qorni och bilan nima ishi bor” deya bilib aytadi. Buning yorqin misoli — Sariboy. Uning bog‘ida “olmalar pishib, to‘kilib ketayotibdi, xo‘jayindan ruxsatsiz terishga hech kim botina olmaydi. Otlarga yem-xashak yo‘q, xizmatkorlar och...” Boy ota esa bu vaqtida Yusuf kontordan qimorga yutib olgan bog‘ida, “do‘ndiqqina qirg‘iz xotin”ga uylanib olgan, bir ketganicha “o‘n-o‘n besh kunlab kelmaydi”. Sariboyning qo‘liga qaram xizmatkorlar holiga befarqligi na islomiy va na bashariy nizomlarga to‘g‘ri keladi. Zero, xizmatkorlargina uning oldida emas, u ham xizmatkorlar oldida burchli. Biroq Sariboy bu ayon haqiqatni anglashdan ojiz, pulning kuchi uni o‘zidan ketkazgan, o‘zi mansub toifa kishilari singari u ham o‘ziga ep ko‘rganki ishni qilishga haqliman deb biladi... Eng yomoni shuki, bularni haq yo‘lga boshlashi lozim bo‘lgan, umuman, millat ma’naviyati uchun mas’ul toifaning o‘zi aynigan: kechagi kissavur boshiga sallani qo‘ndirib “murid ovlaydi”, eshon xazratlari o‘smir Shum bolani o‘g‘irlikka undaydi, ko‘sa eshon gavjum bozor o‘rtasida zulmni adl deb talqin qiladi, tarkidunyochilik da’vosidagi qalandarlarning yolg‘iz ilinji — pul; islom farzlarini to‘la ado etganlarning biri — Xojibobo afyunfurush, Rahmat xoji — xotinini bozorga solib boyvachcha bo‘lgan dayus...

Albatta, bu o‘rinda “G‘afur G‘ulom sho‘ro adibi, shu bois boyu ruhoniylar tasvirida qora bo‘yoqlarni quyuqlashtirgan” qabilidagi e’tiroz tug‘ilishi mumkin. Agar shunday bo‘lsa, jadid nashrlarini varaqlab boqing: ma’rifatparvar bobolarimiz ham ayni shu illatlar haqida bong urganiga amin bo‘lasiz. E‘tiborli tomoni shundaki, adib ma’naviy tanazzulni faqat boyu ruhoniylardagina ko‘rmaydi. Aksincha, boyvachchalardan gula ko‘targan kosib-hunarmandlar satanglar bazmida ham, Xojibobo takyasida ham goh-goh ko‘rinish beradilar. Boz ustiga, qahramonimiz Shum bolaning “shumlik”lari zamirida kishining haqi yo‘monatiga xiyonat, qalloblik, qo‘li egrilik kabi illatlar nish urib turganini ham inkor etib bo‘lmaydi. Uning uzriga quloq tuting-a: “Badanda bir sarkash a’zo bor, u mening ixtiyorimdan tashqari, o‘zboshimcharoq, odamlarga vafo qilgan — qorin. U badan mulkining hokimligini ba’zan qo‘limdan olib qo‘yadi. Boshqa a’zolar ham uning isyonchi talablariga qo‘shila boshlaydi. Ko‘zim noshar’iy, harom luqmalarga tusha boshlaydi. Qo‘l qorin hukmi bilan ba’zida eng past kishilarga tama kapgiriday cho‘ziladi. Oyoq kutmagan joylarga olib boradi”. Ko‘ramizki, adib talqinida ma’naviy tanazzul barchani boyu kambag‘al demay barchani komiga tortgan. Faqat shunisi borki, birining tanazzuli to‘qlikdan,

⁵<https://fayllar.org/shum-bola-asari-tahlili>

ikkinchisiniki ochlikdan kelib chiqadi, bas, bu o‘rinda avvalgilarini ko‘proq ayblash uchun sho‘ro yozuvchisi bo‘lish shart emas...

Yuqorida aytdikki, davning jadidlar tanqid qilgan deyarli barcha illatlari “Shum bola” badiiy voqeligidagi u yoki bu darajada o‘z ifodasini topgan. Qissadagi hayot tasviridan “ortiq bu tarzda yashab bo‘lmaydi, jamiyat isloh qilinishi kerak” degan xulosa kelib chiqadiki, bu ham jadidlar qarashlariga hamohang. O‘rtadagi farq esa, bizningcha, tasvir rakursida xolos: jadidlardan farq qilaroq, G‘afur G‘ulom mehnatkash xalq hayotini “ichdan” tasvirlaydi. Ya’ni, adib bu hayotni yashab o‘tgan, sirtdan kuzatib bilgan emas. Bas, inqilobdan so‘ng mehnatkashlar hayotida ozmiko‘pmi ijobiy o‘zgarishlar bo‘lgan ekan, ularga adibning munosabati ijobiy bo‘lmasligi mumkinmi edi?! Hozirda bu nav munosabatga, aytaylik, jadidlar munosabati yoki bugunda shakllangan munosabatni qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘rimikan?! O‘sha hayotni yashab ko‘rmagan avlod bularning birini haq, ikkinchisini nohaq sanashga haqlimi?! O‘tmish hayotini ham, o‘z vaqtidagi unga turlicha munosabatlarni ham ixtiyorimizdan tashqaridagi mavjudlik, amalga oshib bo‘lgan fakt sifatida boricha, butunisicha qabul qilingani to‘g‘riroq bo‘lmaydimi?.... — yuqorida aytganimiz andisha shu kabi savollardan turtki oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari o‘z davrida yaratilgan eng nodir asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asarni o‘qigan inson tariflanayotgan davr va ushbu davr insonlarini qiyinchiliksiz tasavvur eta oladi. Asarning bunday tarzda yaratilganligi ham adibning mahoratidan darak beradi. “Shum bola” asarining haligacha sevib o‘qilib kelinayotganligi ham uning betakror va tushunarli ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://fayllar.org/shum-bola-asari-tahlili>;
2. <https://wordlyknowledge.uz>;
3. G‘afur G‘ulom, Tanlangan asarlar, Nazm va nasr; Toshkent, 2012.
4. <https://tafakkur.net/gafur-gulom>;
5. <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>.